

KOMONIMLAR TOPONIMIKANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Asqarova Yorqinoy Mo‘minjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi toponimlar va ularning turlari, komonimlarning toponimik obyektlar ichidagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan. Komonimlarni o‘rganishda geografiya, tarix, etnografiya fanlarining tilshunoslik bilan kesishuvi maqsadga muvofiq ekani ifoda etiladi.

Kalit so‘zlar: Toponimlar, til tarixi, etimologiya, komonimlar, Mirpo‘stin, lingvistik tahlil, etimologik tahlil.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о топонимах в узбекском языке и их видах, месте общих названий в топонимических объектах. При изучении нарицательных названий уместно объединить науки географию, историю, этнографию с лингвистикой.

Ключевые слова. Топонимы, история языка, этимология, комонимы, Мирпустин, лингвистический анализ, этимологический анализ.

Annotation: This article presents information about toponyms in the Uzbek language and their types, the place of common names in toponymic objects. When studying common nouns, it is appropriate to combine the sciences of geography, history, ethnography with linguistics.

Key words: Toponyms, history of language, etymology, commononyms, Mirpustin, linguistic analysis, etymological analysis.

Olamni hududlar kesimida lisoniy o‘rganishda tilshunoslar toponimikaga murojaat qiladilar. Toponimlar (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo‘lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, tadqiq nuqtayi nazaridan eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Dunyodagi har qanday hudud ma’lum nom bilan atalar ekan, ularni to‘plash, tadqiq etish, tahlilga tortish, uning etimologiyasini aniqlash va shu asnoda unga ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, etnografik baho berish bugunning vazifalaridandir. Toponimlar joy tarixi haqida ma’lumot berib, unda o‘sha yerning qachon paydo bo‘lgani, uning sabablari, u bilan bog‘liq rivoyat va haqiqatlar, o‘sha yerda yashovchi xalq tarixi xususidagi faktik materiallar o‘z ifodasini topadi. Toponimiya bilan geograflar, tarixchilar, etnograflar bilan birgalikda tilshunoslar ham shug‘ullanadilarki, ularning har biri o‘z yo‘nalishlari

asosida tadqiq yo'lini tanlasalar-da, toponimika tadqiqida bularning barchasi bir nuqtada kesishishi maqsadga muvofiq.

“Dunyo tilshunosligida bugungi kunda toponimlarning turli aspektlarda tadqiqot obyektiga aylantirilishi muayyan tillarning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, xalqlarning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, milliy tillarning o'ziga xos jihatlarini ochib berishda muhim vosita sanalmoqda. [1, 4]

Ma'lumki, Andijon viloyatidagi Saroy, Beshkal, Nayman kabi etnotoponimlar haqida ilmiy xulosa chiqarish uchun tadqiqotchi etnografik, tarixiy, jug'rofiy bilimga ega bo'lishi shart. Aks holda toponim haqida mukammal ma'lumot olishi mumkin emas. Shu bilan birga, tilshunos lingvomadaniy, etnolisoniy, psixolingvistik, pragmalingvistik yondashuvlar bilan ham qurollangan bo'lishi kerak bo'ladi. Bu borada o'zbek urug'lari, ularning tarqalishi, o'troq holda o'rnamishi kabi ma'lumotlarni geografik, tarixiy asosga ko'ra o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalq, urug' kabi etnos ma'nosini bildiruvchi joy nomlari H.Hasanov ta'kidicha, 8 xil omil asosida hosil bo'ladi. [2,25-27].

Etnotoponimlar xususida to'xtalgan professor A.Nurmonov: “Ko'rinadiki, respublikamizdagi etnotoponimlar xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini bo'lgani uchun, u davlat himoyasiga olingan. Va uni o'zboshimchalik bilan o'zgartirib yuborishga yo'l qo'ymaslik lozim”. [3,304]. Yoinki Olimbek, O'rmonbek (Baliqchi), Shahrixon qishloqlari nomlanishini bilish uchun tarixiy faktlarga – Qo'qon xonligi tarixiga murojaat qilish darkor bo'ladi.

Yuqorida qayd etilganiday, toponimika tilshunoslikning o'rganish obyekti sanalib, leksik birlik sifatida tahlilga tortiladi. Muayyan joyning atamasi bo'lgan toponim leksik ma'nosi, semantik tuzilishi, uning hosil qilinishi (etimologiyasi), leksemaning struktur jihatlari, tuzilishiga ko'ra turlari bo'yicha ilmiy o'rganilgach, ma'lum xulosaga kelinadi. Shu bilan birga, toponim-leksema sintaktik sathda uslubiy jihatdan mos ravishda xususiyatlarga ega bo'ladi.

Ma'lumki, toponimlar tarixiy manba, qadriyat sifatida toponimik milliy kolorit tashuvchi birlik sanaladi va unga diaxron va sinxron nuqtayi nazardan yondashish kerak bo'ladi. Masalan, Mirpo'stin toponimik leksemasining tarixiy manbalarda kelishi: Ojizning asarida Xoja Ahror valining Mirpo'stinga kelishi, u yerda masjidida ikki rakat namoz o'qishi va usta Mo'min degan odamga bu yerlarni obod qilish kerakligi haqidagi fikrini bildirgani ushbu toponimning o'n beshinchi asrdan oldin paydo bo'lganini bildiradi. [6,98-105.]

Toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik shakli (relyef), o'sha yerda yashovchi aholining etnik tarkibi, kasb-kori va nima bilan shug'ullanishi, o'sha yerda yashagan mashhur tarixiy shaxslar va boshqa voqealar toponimlar hosil bo'lishi uchun sabab, omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, toponimlar nomlanishiga ko'ra: 1. Oronimlar — ko'tarilgan relyef shakllari (tog'lar, qirlar, cho'qqilar, adirlar) nomlari; 2. Speleonimlar - tabiiy yer osti tuzilmalarining nomlari; 3. Horonimlar - har qanday hudud (viloyat, tuman, shtat) nomlari; 4. Tabiiy dafn marosimlari - geografik hududlarning nomlari; 5. Ma'muriy horonimlar - siyosiy birliklar va davlatlar nomlari (kratonimlar); 6. Urbanonimlar - shaharlararo obyektlarning nomlari; 7. Agoronimlar - kvadratlarning nomlari; 8. Godonimlar - ko'cha nomlari; 9. Dromonimlar - aloqa yo'llarining nomlari; 10. Oykonimlar - aholi punktlarining nomlari; 11. Astionim - shaharlarning nomlari; 12. Komonimlar - qishloq aholi punktlarining nomlari; 13. Gidronimlar - suv obyektlarining geografik nomlari; 14. Gelonimlar - botqoq, botqoq yerlarning nomlari; 15. Limnonimlar - ko'llarning nomlari; 16. Agroonimlar ekin maydonlarining nomlariga bo'linadi; 17. Drimonimlar (qadimgi yunoncha: δρυμός „eman, o'rmon, to'qay“ + ὄνομο „ism, ism“) — o'rmonlar, to'qaylar, qarag'ay o'rmonlari nomlari va boshqalarga bo'linadi.

Ko'rinib turibdiki toponimlar joyning vazifasi va shakliga ko'ra, ko'rinishi va xususiyatiga, ma'muriy-hududiy bo'linishiga, milliy-urfiy odat va an'alariga va tabiiy joylashuviga ko'ra o'z ichida bir qancha turlarga bo'linib ketadi va ularni tumanlar, viloyatlar kesimida o'rganish va mamlakat bo'yicha jamlash bugunning eng dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Biz ushbu maqolada qishloqlarning nomlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Komonim atamasi ostida tadqiq etilayotgan qishloq nomlari, aytarli, qadimiy nomlardan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki viloyatimizda qishloq nomlari nisbatan qadim davrlarga borib taqaladi. Bugunda ayrim tuman, mahalla, ko'cha, va boshqa obyektlar nomi ham qishloq nomlari asosiga qurilgani ham buni isbotlaydi.

Komonimlar (grek tilidan olingan) qishloq, mahalla nomlari ma'nolarini bildiradi. Bu nomlar tarixiylik, tabiiy atamalik, etnografik va lingvistik jihatdan tadqiq ob'yekti bo'ladi. Filologiya fanlari doktori, professor T. M. Shmelev onomastika bo'yicha o'quv qo'llanmasida astionim (grek tilida shahar nomi) ham mos kelishini va avvallari shaharlar ma'muriy-chegaralanishi aniq bo'lmaganini, shuning uchun shahar, qishloq nomlarida ham tafovut kam bo'lganini aytib o'tadi. Shu bilan birga, urbonim atamasi ham ishlatilishini ta'kidlaydi: Astionim atamasi kamroq ifodalilikka ega (urbonimga qaraganda), chunki u boshqa leksik birliklar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi, chunki biz onomastik atamalarni doimo kashf qilishga harakat qilamiz. [4, 101.]

N.Sattarova dissertatsiya ishida ko'cha nomlariga to'xtalib, ular leksik-semantik jihatdan 7 xil omil asosida nomlanishini ta'kidlaydi: “1. Antropogodonimlar, 2. Etnogodonimlar, 3. Gidrogodonimlar, 4. Fitogodonimlar, 5. Kasb-hunar nomlari asosida yasalgan godonimlar, 6. Teogodonimlar, 7. Boshqa tushunchalar asosida shakllangan godonimlar: toponim, zoonim, oronim, mavhum

tushunchalar asosida, xronogodonim”. [1, 50-51] Ushbu nomlash asosini komonimlarda ham kuzatish mumkin.

O‘zbeklar turmush tarzida shaharning ichki strukturasida “mahalla” ma’muriy bo‘linishi mavjud bo‘lib, ular bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy-ma’muriy obyekt sifatida faol ishlatilmoqda. Professor S.Jalilov: “Mahalla” so‘zining asl lug‘aviy ma’nosi – odamlar to‘planib yashaydigan ma’muriy-territorial birlik demakdir. Arxeologlarimiz bronza davridayoq, (ya’ni 3-3, 5 ming yil oldin) odamlarning oila bo‘lib yashagan makonlarini topib tekshirdilar. O‘sha davrdan boshlab oilalar o‘zaro uyushib muayyan boshqaruv tizimini tashkil qilganlar”, – deb yozadi. [5, 5.]

Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, komonimlar o‘rganuv obyektiga qishloq nomlari bilangina chegaralanib qolmasdan, milliy xususiyatdan kelib chiqqan holda mahalla nomlarini ham o‘rganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Sattarova N. O‘zbek tilida godonimlarning lingvistik xususiyatlari (Andijon viloyati materiallari asosida). Filol. fanl. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) dissertatsiyasi. Andijon. 2024. 146 b.)
2. Хасанов Х. География терминлари луғати. Т.: Фан, 1964. 112 б.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик, Тошкент, “Академнашр”. 2012. 3-жилд. 376 б.
4. Шмелев Т. В. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). М.: Наука, 1973.
5. Жалилов С. Юзта қишлоғу ўнта гузар таърифи. А.: Андижон нашриёт-матбаа МЧЖ. 2011. 54 .
6. Шамсутдинов ва б. Бирпўстин-қадамжо, зиёратгоҳ, сайилгоҳ / “Водийнома” журнали. 2018, №2. 98-105-б